

# MADANIYAT VA SAN'AT JURNALI

ISSN: 2181-4562  
www.imfaktor.com

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**AXMEDOV Muxomod-Umar Baxridinovich**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
"Tasviriy san'at" kafedrasi professor vazifasini bajaruvchi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15408271>

## **BINO INTERYERINI BADIY BEZASHDA O'ZBEK XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATINING AHAMIYATI**

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada milliy me'morlikda bino interyerini o'zbek xalq amaliy bezak san'ati bilan bezatish va uning usullari bayon qilingan.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining yeng oddiu printsiplari, unda naqsh yelementlari bir biriga mutanosibli, uug'unlikda uo'sin va usullarini ajouib ko'rinishda qauta-qauta takrorlashuvidan xosil bo'lishi haqida fikr yuritilgan. Xalq naqqoshlari tomonidan naqshlarning har bir elementlariga alohida e'tibor berilishi, uning tabiiyligini saqlashga harakat qilish, xarakterini yo'qotmaslik, har bir element ustida puxta fikr yuritish usullari yoritilgan. Tuzilgan har bir naqsh kompozitsiyasi negiziga ma'lum ramziy ma'no singdirish bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, me'mor, tikuvchi, sangtarosh, zardo'z, zargar, kulol, sahhob, naqqosh, rihtagar, izora, panel, friz, karniz, bino, masjid, madrasa, maqbara, minora.

## **THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK APPLIED DECORATIVE ART IN THE ARTISTIC DECORATION OF THE INTERIOR OF THE BUILDING**

### **ANNOTATION**

The article describes the decoration of interiors of buildings in national architecture by Uzbek folk decorative art and its techniques.

The article examines the basic principles of Uzbek folk decorative art, in which the elements of the pattern are proportional to each other, harmoniously combined with each other, and the techniques are repeated many times in a bright manner. It emphasizes the special attention paid by folk designers to each element of the patterns, the desire to preserve its naturalness, the techniques of not distorting its character, the techniques of careful consideration of each element. It is noted that each composition of the pattern has a certain symbolic meaning.

**Key words:** Uzbek folk applied arts, architect, tailor, mason, goldsmith, jeweler, potter, sahhob, painter, carpenter, icon, panel, frieze, cornice, building, mosque, madrasah, mausoleum, minaret.

## **ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ДЕКОРАТИВНО-ПРИКЛАДНОГО ИСКУССТВА В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ОФОРМЛЕНИИ ИНТЕРЬЕРОВ ЗДАНИЙ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье описывается декорирование интерьеров зданий в национальной архитектуре узбекским народным декоративным искусством и его приемы.

Рассматриваются основные принципы узбекского народного декоративного искусства, в котором элементы узора пропорциональны друг другу, гармонично сочетаются друг с другом, а приемы многократно повторяются в яркой манере. Подчеркивается особое внимание, уделяемое народными дизайнерами каждому элементу узоров, стремление сохранить его естественность, приемы не искажения его характера, приемы тщательного рассмотрения каждого элемента.

Отмечается, что каждая композиция узора имеет определенное символическое значение.

**Ключевые слова:** Узбекское народно-прикладное декоративно-прикладное искусство, архитектор, портной, каменщик, золотых дел мастер, ювелир, гончар, сахоб, живописец, плотник, икона, панно, фриз, карниз, здание, мечеть, медресе, мавзолей, минарет.


Naqqoshlik san'ati o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida unga beminnat ko'makchi va hamroh bo'lib kelgan. O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng oddiy printsiplari shundan iboratki, unda naqsh elementlari bir biriga mutanosiblikda, uyg'unlikda yo'sin va usullarini ajoyib ko'rinishda qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir elementlariga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini saqlashga harakat qilganlar, xarakterini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. Tuzilgan har bir naqsh kompozitsiyasi negiziga ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. O'zbekiston hududidagi arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, XI-XII asrlarda naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilganligi aniqlangan [1].

O'rta Osiyo xalqlari tarixida XIV-XV-asrlarda taraqqiy etgan feodalizm ijtimoiy-iqtisodiy ko'rinishidagi kishilik jamiyati davrida feodal ishlab chiqarishga asoslangan o'ziga xos iqtisodiy-madaniy ko'tarinkilik ro'y berdi. Hozirda biz ushbu davrni Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzodga o'xshash juda ko'p iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar va san'atkorlarning nomi bilan bog'liq bo'lgan Renessans (Uyg'onish) davri deb ataymiz.

XIV-XV-asrlarda Samarqand hamda uning atrofidagi shahar va qishloqlarda milliy me'morligimizga oid turli-tuman inshootlar tez sur'atlar bilan qurila boshlandi. Mazkur qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo'lgan barcha o'lkalardan kelgan me'morlar, hunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni ko'rish mumkin edi. Ular o'zlari qurdirayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san'atkorona mahoratlarini baxsh etganliklari shubhasiz. Zero, o'sha davrlarda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko'p hashamatli tarixiy madaniy obidalarda O'rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O'rta Sharq xalqlarining o'ziga xos boy, sermazmun badiiy-estetik merosining sintezi qorishib, uyg'unlashib ketganligi bilan dalilashimiz mumkin.



1-rasm. Ulug'bek madrasasi (Samarqand).



2-rasm. Bino intereri devorining qismlari.


Karniz

Friz

Panel

Amir Temur hukmronligi davrida hunarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan yerlardagi hamma hunarmand-ustalarni Samarqandga yig'di. U me'mor, tikuvchi, sangtarosh, zardo'z, zargar, kulol, sahhob, naqqosh, rihtagar va boshqa ustalarni olib kelib, o'z hunarlarini va mahoratlarini namoyon etish imkonini berdi. Amaliy bezak san'ati tur va janrlari kengayishi natijasida hamda naqqoshlikning boshqa amaliy bezak san'at turlarining negizini tashkil etishi bois, u tez sur'atlarda rivojlana boshladi.

Sohibqiron Amir Temur rahnamoligi ostida juda ko'plab bino, masjid, madrasa, maqbara, minora va boshqalar qad ko'tardi. Binolardagi bezaklar yanada sayqallashtirildi, badiiylashtirildi (1-rasm). Shaharlarning atroflari bog'u bo'stonga aylantirildi, ko'kalamzorlashtirildi.



**3, a-rasm. Bino hovuzak qismi eskizi.**

Amir Temurning elparvarligi tufayli uning davrida o'zbek milliy madaniyati yanada rivojlandi va takomillashdi. Ayniqsa, tasviriy san'at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlandi. Devoriy suratlarda osmon, bulutlar, sobitu sayyoralar, tog'lar, toshlar, daraxtlar, maysalar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar, qushlar va boshqalar aks ettirildi. Har bir davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukmdorlarning kuch-qudratini, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat edi [2].



**3, b-rasm. Bino intererining ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan friz va hovuzak qismi.**

Shuni alohida ta’kidlash joizki, amaliy bezak san’atiga hamda tasviriy san’atga oid ko‘pgina san’at asarlari o‘zaro bo‘lib o‘tgan nizolar va urushlar oqibatida qasrlardagi, turar joylardagi, kutubxonalardagi va jamoat binolaridagi san’at asarlari bizgacha etib kelmagan. Ayrim qoldiqlarigina saqlanib qolingan. Ushbu topilmalarga asoslanib aytishimiz mumkinki, oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar, mashvaratlar, shikorlar va jang ko‘rinishdari tasviri nihoyatda nafis ifodalangan.



**3, d-rasm. Bino ayvonining naqqoshlik san’ati bilan bezatilgan karniz va hovuzak qismi (Xivadagi Tosh hovli).**

Milliy inshootlarimizning ichki qismidagi har bir me'moriy qismi o'ziga xos elementar bezak shaklidan tashkil topgan. Bino intereri, ya'ni xona devorining balandligi 3 qismga bo'lingan, devorning pastki qismi izora (panel), o'rta qismi friz va tepa qismi karniz deyiladi [3] (2-rasm).

Devorning friz qismi namoyonlar, manzaralar, katta-kichik naqshlar, unvonli yozuvlar va boshqalar bilan bezatilgan. Shuningdek, har xil geometrik va o'simliksimon naqshlar ishlangan. Devorning yuqori qismi bilan shift o'rtasidagi ganch bilan bezatilgan bejirim karnizlar ishlatilgan, buni sharafa deb ataladi. Shiftning o'rtasi o'yib ishlov berilgan yog'ochli yoki ganchli qubbalar bilan bezatilgan, bu esa hovuzak deyilgan (3, a-d-rasmlar). Shu va shu kabi hovuzaklarga islmiy, gulli girih yoki handasiy naqshlar, shuningdek, turunjlar bilan ziynatlangan. Shuningdek, xonaning hovuzaklariga silliq qilib vassajuftlar - yarim silindrsimon tayoqchalarni yonma-yon terib chiqish natijasida to'liqinsimon yuza hosil qilingan (4-rasm). Bunday hovuzaklar ko'pincha umumiy rang yoki oddiy islmiy naqsh bilan bezatilgan. Bu bezaklar o'zbek xonadonining ziynati hisoblangan.



**4-rasm. Bino intererining vassajuftlar bilan bezatilgan hovuzak qismi (Qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi).**

Devorlardagi tokcha va taxmonlarning cheti, kitobalari ajoyib naqsh namunalari bilan bezatilgan. Xonadagi tokcha va taxmonlar har xil idish-tovoqlar, uy-ro'zg'or va kishiga ma'naviy ozuqa beruvchi amaliy bezak san'ati, xalq hunarmandsiligi buyumlari bilan ziynatlangan. Shu tariqa uy-ro'zg'or buyumlariga hamda idish-tovoqlarga naqsh berish an'analari yanada keng rivojlandi. O'rta asr miniatyura san'ati taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi va rivoj topdi (5-rasm).

O'zbek xonadonlari guldor gilamlar, namatlar, kashtalar, zardo'zi ashyolar, rang-barang adyol va choyshablar, idish-tovoqlar, naqshinkor xontaxtalar, kursilar, lauhlar, sandiq va qutichalar, devorlaridagi manzarali namoyonlar, hashamdor shiftlar - bular barchasi birgalikda xalq amaliy bezak san'atining yaxlit bir serjilo kompozitsiyasini tashkil qilishiga e'tibor qaratildi.



**5-rasm. Panel, friz va karniz qismlari amaliy san'at bilan bezatilgan bino intererini (Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi. Buxoro).**

Uy-ro'zg'or buyumlari - xontaxtalar, qalamdonlar, qutichalar, devoriy naqshlar, ularning rangin bezaklari bir-biri bilan uyg'unlikda, biri ikkinchisini to'ldirib yanada go'zal joziba, jilo bag'ishlovchi bezaklar bilan ziynatlandi. Ana shunday devorlarga ishlangan kompozitsiyalar o'zining mutanosibligi, puxtaligi, ranglarining uyg'unligi, gammasi, niqshlarning yechimi, bichimi, xarakteri, nafisligi, badiiyligi bilan san'at ihlosmandlarining diqqatini o'ziga jalb etadi [4].

Xalqimizdan yetishib chiqqan mohir naqqosh-ustalar ota-bobolarimiz tomonidan bunyod etilgan va ta'mirtalab inshootlarni - masjid, madrasa, maqbara, minora, karvonsaroy, turar joylarni va saroylarni ta'mirlay boshladilar va bu borada ham o'ziga xos maktab yarata oldilar. O'tgan asrning 30-yillaridan so'ng ko'pgina jamoat uylari, choyxonalar, madaniyat saroylari va boshqa joylarni naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi asosida badiiy bezash ishlari yana yo'lga qo'yila boshlandi.

1939-yilda Samarqand va Buxoroning eng mohir ustalaridan 12 kishi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi binosini ajoyib naqshlar bilan bezadilar. Shu yillari "Bahor" kontsert zalini naqsh, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. 1940-yillarda qurilgan Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri binolari ajoyib naqsh, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan bezatildi.

**IQTIBOSLAR. ЧОККИ. REFERENCES.**

1. Xolmatov B.Q. Naqqoshlik. -T.: Iqtisod-Moliya, 2007.
2. Muratov X. X., Jabbarov R. R. Amaliy va badiiy bezak san'ati. -T.: IJOD-RRINT, 2020.
3. Axmedov M.B. Amaliy bezak san'ati. -T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2025.
4. Axmedov M.B. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD). ... diss. -Chirchiq: 2023.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik! -T.: TASVIR, 2021, 52 b.
7. Axmedov M.B. Qalamtasvir. -T.: IJOD-NASHR, 2025, 384 b.
8. Axmedov M.B. Yog'och o'yamakorligi. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2017, 220 b.
9. Axmedov M.B. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish (monografiya). -T.: ZUXRO BARAKA BIZNES, 2025, 196 b.
10. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). Formation of creative processes in students through teaching composition in fine arts. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
11. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). Teaching students to draw elements of patterns in wood carving circles. Збірник наукових праць ЛОГОΣ. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
12. Axmedov M.B. Bo'lajak tasviriy san'at fani o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash. -Buxoro: INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, ISSN 2992-9024, 2024-yil,10 (1)-son, ©intereduglobalstudy.com. 2024, ISSUE 10 (1), 32-41.
13. Akhmedov, M.-U. ACHAMITY OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK FOLK APPLIED DECORATIVE ART. -AQSH: INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12, 23 American Academic publishers, volume 05, issue 03, 2025. Journal: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
14. Akhmedov, M.-U. Preparation of Future Fine Arts Teachers for Innovative Professional Activity Scientific And Practical System. Next Scientists, European International Journal of Pedagogics. TYPE Original Research PAGE NO. 117-123 DOI 10.55640/eijp-05-04-28. OPEN ACCESS SUBMITTED 26 February 2025. ACCEPTED 22 March 2025. PUBLISHED 25 April 2025. VOLUME Vol.05 Issue04 2025. <https://eipublication.com/index.php/eijp>. P. 117-123.
15. Axmedov M.B. Amaliy bezak san'ati. -T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2025, 460 b.